

Mavzu: O'zbekiston Ikkinchi Jahon Urushi Yillarida

Mahmudov Mirsaid Mavlon o'g'li¹

Annotatsiya: Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda olijanob an'anaga aylanib qolishi va Ikkinchi jahon urushida g'alaba qozonishda muhtaram faxriylarimizning jasorati, shonli an'analari, hech shubhasiz, biz uchun hamisha ibrat bo'lib xizmat qilishi haqida.

Kalit so'zlar: G'alaba bog'i, Rostselmash, Katyusha, Abdujabbor Aliqulov, Zebo G'aniyeva.

Kirish

Har qanday tarixiy voqelik arxiv hujjatlari asosida yozilishi kerak va shundagina tadqiqotchi arxiv olamiga kiradi, shundagi tarixiy voqelik bayoni aniq faktlarga asoslanadi.

Bashariyat o'z tarixi davomida ko'plab falokat va urush davrlarini boshdan kechirdi. Ular ichida esa, 50 milliondan ortiq kishining yostig'ini quritgan, ming-minglab bolalarni ota-onasiz qoldirgan, ota-onalarni esa farzand dog'idek mudxish dardga mubtalo qilgan, XX asr fojiasi bo'lmish ikkinchi jahon urushi, insoniyat boshiga haqiqiy kulfat keltirdi.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida O'zbekiston Respublikasining shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza kelib tushgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'z yurtiga sadoqat, vatanparvarlik hissi har bir yurtdoshlarimizning urush maydonlariga qadam qo'yishlariga sabab bo'lgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentyabrdagi PF-5834-son Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan tarixiy davr (1917-yilgacha) arxiv hujjatlarini o'rnatilgan tartibda maxfiylikdan chiqarish bo'yicha choralarini ko'rish belgilab berilgan. Shuni asnosida Ikkinchi jahon urushi davriga oid bo'lgan arxiv hujjatlarini maxfiylikdan chiqarish tashabbusi kiritildi.

O'zbekiston Milliy arxivi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabani 75 yilligini munosib nishonlash to'g'risida"gi PQ-4495-son Qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan bugungi kungacha maxfiylik rejimida saqlangan 1941-1945-yillarga oid arxiv hujjatlarini o'rnatilgan tartibda maxfiylikdan chiqarish ishlari olib borildi.

Mazkur hujjatlarda asosan 1941-1945-yillarda urush maydonlaridagi aholini evakuatsiya qilish jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari, xarbiy, ilmiy, madaniy muassasalar, bolalar uylari, gospitalar va boshqa toifa tashkilotlarni respublikamizga ko'chirib keltirilishi, halqimizning urush davridagi front orti mehnatlari va halqimiz tomonidan frontga jo'natilgan qurol-aslahalar, oziq-ovqatlar, to'qimachilik mahsulotlari va boshqa ko'plab shu kabi O'zbekiston halqining Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaga qo'shgan hissasi aks etgan materiallar mavjud.

Ikkinchi jahon urushiga oid maxfiylikdan chiqarilgan hujjatlardan esa, hozirgi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxtimizning Olmazor tumanida yangi bunyod etilayotgan "G'alaba bog'i" hududidagi "Shon-sharaf" muzeyi eksponatlarini yaratilishida keng foydalanildi. G'alaba bog'ida va muzeyida xalqimiz bu hujjatlar bilan yaqinroq tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

¹Termiz Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti, tarix yo'nalishi uchinchi bosqich talabasi



O‘zbekistonda Ikkinchi jahon urushi qahramonlari xotirasiga bag‘ishlangan xotira.archive.uz sayti ishga tushirildi. Ushbu sayt orqali Ikkinchi jahon urushida qatnashgan askarlar, urush qahramonlari haqida to‘liq ma‘lumot olish mumkin. Ushbu loyiha G‘alabani 75 yilligi munosabati bilan taqdim etildi. Jumladan maxfiylikdan chiqarilgan hujjatlarning bir qismi keng ommaga yetkazish uchun mazkur saytga joylashtirildi.

Saytga materiallarni joylashtirish jarayoni ham o‘ta murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oldi. Xususan respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan 3 ta milliy va 101 ta davlat arxivlarining barchasida dastavval mavjud Ikkinchi jahon urushiga oid materiallar ajratildi. Ajratilgan arxiv hujjatlariga ilmiy-ma‘lumotnoma apparatlari shakllantirildi. Har bir arxiv hujjatlarining elektron nusxalari yaratildi va bosqichma-bosqich saytga joylashtirildi.

Ta‘kidlash kerakki, Prezidentimizning 2021-yil 20-apreldagi “Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish dasturi”da xalqimizning Ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaga qo‘shgan munosib hissasini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, unga doir yangi hujjatlar bilan xalqimizni tanishtirish vazifasi belgilangan edi.

Mazkur topshiriqlarni bajarish maqsadida davlat arxivlari tomonidan bir qancha tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan “O‘zarxiv” agentligi, uning Farg‘ona viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi hamda Ahmad al-Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot kutubxona markazi bilan hamkorlikda “Mening buyuk bobom” loyihasi amalga oshirildi.

Loyihani amalga oshirishdan maqsad Ikkinchi jahon urushida ishtirok etib, buyuk G‘alabani ta‘minlashga munosib hissa qo‘shgan, fuqarolarimizning oilaviy arxivlarida saqlanayotgan urush davriga oid maktublar, fotosuratlar, urushda ko‘rsatgan qahramonliklari uchun taqdirlangan jangovar orden va medallar hamda boshqa aloqador hujjatlar mavjudligini aniqlash, shuningdek, ularni arxiv muassasalariga topshirilishini ta‘minlash orqali kelajak avlodga munosib holda yetkazishga e‘tibor qaratilgan.

2021-yilning 20-aprel kundan 8-may kungacha qadar o‘tkazilgan loyiha butun Farg‘ona viloyatidagi barcha aholi qatlamini qamrab oldi. Loyihaning telegram ijtimoiy tarmog‘idagi sahifalariga fuqarolardan oilaviy arxivlarida saqlanib qolgan fotosuratlar, janglarda ko‘rsatgan qahramonliklari uchun taqdirlangan medal va ordenlari, ularning guvohnomalari hamda front ortidagi fidoyiliklari aks etgan 7 mingdan ziyod materiallar kelib tushdi. Jamlangan fotosuratlardan har kuni videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarda omma e‘tiboriga havola etildi. Mazkur loyihadagi faol qatnashgan ishtirokchilar esdalik sovg‘alari, tashakkurnomalari bilan taqdirlanishdi.

Ikkinchi jahon urushida elektron saytga keltirib o‘tilgan urush faxriylaridan tashqari yana minglab qahramonlarni e‘tirof etish mumkin. Ushbu tinch va osuda zamonlarga yetib kelishimizda ularning ham hissalarini beqiyosdir. Tarix — maktab. O‘tmish esa ibrat. Insoniyatning ming yilliklar orasida topgan haqiqatlari shunday! Biroq qachonlardir odamzodni zor qaqshatgan, yostig‘ini quritgan og‘ir musibatu kulfatlar, mislsiz talafotu yo‘qotishlar borki, ular tufayli hosil bo‘lgan qalb jarohatlarining asorati asrlarni qaritsa ham izziz yo‘qolmaydi.

Ikkinchi jahon urushida g‘alaba qozonishda muhtaram faxriylarimizning jasorati, shonli an‘analari, hech shubhasiz, biz uchun hamisha ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Va biz buni yuksak qadrlaymiz, otabobolarimiz bilan cheksiz faxrlanamiz!

O‘zbek xalqining o‘g‘lonlari ham Ikkinchi jahon urushi frontlarida mardlik va qahramonlik ko‘rsatdilar. Stalingrad shahri himoyasida ko‘rsatilgan jasorat uchun 2,738 nafar o‘zbek askariga harbiy orden va medallar topshirilgan. Dnepr jangidagi qahramonliklari uchun 45 nafar o‘zbek askari Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Dushman tomonidan vaqtincha bosib olingan hududlarda o‘zbeklar partizan otryadlarida jang qilgan.

1945-yil 8-mayda Gitler Germaniyasining so‘zsiz taslim bo‘lishi haqidagi hujjatlarni Berlindan Moskvaga Toshkentlik uchuvchi A. Taymetov o‘z safdoshlari bilan birga yetkazib bergan.



120 ming kishiga harbiy orden va medallar topshirilgan. 338 nafar O'zbek Sovet Ittifoqi qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, 45 nafari Dnepr jangida ko'rsatgan qahramonliklari uchun mukofotlangan. 53 nafar o'zbeklar uch darajali Shon-shuxrat ordeni sohibiga aylangan.

Andijon viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi Izboskan tuman davlat arxivining fondlarida saqlanyotgan ikkinchi jaxon urushi va fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 75 yilligi tadbirlari doirasida ushbu suronli yillarga oid turkum xujjatlar va fotolardan namunalar taqdim etiladi. Ushbu foto lavhalar 1941-1943 yillarda olingan bo'lib, suratlar Leningrad, Brandenburg, Volxova, Stalingrad hamda Yugaslaviya respublikasida olingan.

Mazkur fotolar bugungi tinch, osoyishta, to'kin dasturxonimiz uchun shukuronalikda yashash hissini uyg'otadi. Shuningdek, davlat arxivi saqlorida 1942 yilda sobiq SSSR Oliy soveti prezidiumining urush qatnashchilarini medal' bilan taqdirlash vedomostlari mavjud.

Ko'pmillatli O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941-1945 yillarda Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. el-yurtimizni urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. SHuning uchun har yili 9-may mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi. Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirib fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda olijanob an'anaga aylanib qoldi.

Ikkinchi jahon urushi dunyo tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi. O'zbekistonning iqtisodiy va mehnat resurslari frontga safarbar etildi. Bu davrda O'zbekistonda yangi mehnat rejimi joriy qilindi, ya'ni ish kuni uzaytirildi, dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi. O'zbekiston sanoatchilari 1941 yil oxirigacha 300 ga yaqin korxonani jangovar texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar, xotin-qizlar egalladi.

Urushning dastlabki paytlaridayoq 20 mingga yaqin toshkentlik xotin-qizlar sanoat korxonalari va qurilishlarda, 1700 ga yaqin respublika xotin-qizlari ko'mir koni shaxtalarida ishlashga yo'l oldi. Ishlab chiqarishni ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, fabrika-zavod ta'limi maktablarining faoliyati urush davri talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. YAkka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi. Respublikamiz qishloqlarining aholisi frontni va front orqasini oziq-ovqat, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash uchun oyoqqa turdi.

Har bir ishchi ikki-uch ish normasini bajarish uchun fidokorona mehnat qildi. Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. 100 ga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunalar ko'chirib keltirildi. O'zbekiston shaharlarida shoshilinch bo'shatib berilgan yoki yangidan qurilgan binolarga ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalar zudlik bilan joylashtirildi va montaj qilindi. Ular ishchi kuchi, xom ashyo, instrumentlar bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiy izga solinib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladi. Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida harbiy qurollar ishlab chiqarila boshlandi.

O'zbekiston sanoatchilari korxonalarini harbiy izga tushirishdek ishlarni ko'chirib keltirilgan korxonalarini joylashtirish va ishga tushirishdek yanada og'irroq ishlar bilan qo'shib olib bordi. Toshkentda zudlik bilan joylashtirilgan "Rostselmash" zavodi "Katyusha" va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar, Kolchuginskdan keltirilgan kabel zavodi harbiy aloqa mahsulotlari etkazib bera boshladi. Respublika bo'yicha 1941-yil oxirlariga kelib 300 ta sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot ishlab chiqara boshladi.



O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining plenumida respublika sanoatini harbiy izga solish, ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalarini joylashtirish sohasidagi ishlarga yakun yasali, korxonalarda qurol-yarog'lar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish vazifasi ilgari surildi. Buning uchun etarli darajada metall qirquvchi stanoklar va aniq o'lchovchi instrumentlar ishlab chiqarishni tashkil etish, nodir metallar qazib olishni kuchaytirish hamda qora va rangli metallurgiya sanoatini yaratish, elektr energetika bazasini kengaytirish, neft qazib olishni 2-3 baravar oshirish, ko'mir qazib olishni kuchaytirish, yirik qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, qisqa muddatda 30 ming malakali ishchilar tayyorlash tadbirlari belgilab berildi. Ko'chirib keltirilgan korxonalar tarixda misli ko'rilmagan qisqa muddatlarda 4-5 oyda, ayrimlari hatto 1-2 oy davomida qurib bitkazilib, front uchun harbiy mahsulotlar bera boshladi.

Urush yillarida respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko'paydi va 1945-yilda 478 ming tonnadan ortdi. energetika va yoqilg'i sanoatining o'sishi mashinasozlik sanoatining rivojlanishiga qulay baza yaratdi. G'arbdan ko'chirib keltirilgan zavodlar bazasida 16 ta stanoksozlik, to'qimachilik va mashinasozlik korxonalari tashkil etildi. Urushdan oldingi respublikamizdagi ko'pgina zavodlar ham turli asbob-uskunalar, mashinalar, jangovar texnika ishlab chiqarishga moslab qayta qurilgan edi. Bu korxonalarining asosiy xom ashyosi metall bo'lganligi bois unga bo'lgan talab tobora oshib bora boshladi.

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943-yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi. Urush yillarida O'zbekistonda 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari – aviatsiya, stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya hamda boshqa tarmoqlari vujudga keldi. Toshkent SSSRning eng katta sanoat markazlaridan biri bo'lib qoldi.

Urushda g'alabaga erishish transport ishi bilan bog'liq edi. 1943-yil 25-yanvarda "Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Temir yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar safarbar etilgan deb hisoblandi, harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi. Poezdlar harakatining qo'shinlar va harbiy yuklarni birinchi navbatda o'tkazib yuborishini ko'zda tutuvchi harbiy grafik joriy etildi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarining asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan SHarqqa, jangovar texnika va qurol-yarog'larni SHarqdan G'arbg'a o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardi.

Muxtasar aytganda, urush yillarida o'zbek xalqi mehnatkashligi, fidoiyligi bilan g'alabaga mislsiz hissa qo'shdi. Ko'pchiligi uchun o'zi tug'ilib o'sgan vatanidan ancha uzoqda bo'lgan ikkinchi jahon urushi jang maydonlarida o'zbekistonlik jangchilar yovuz dushmangan qarshi kurash olib borib tillarda doston bo'ladigan qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar.

Ma'lumotlarga ko'ra ikkinchi jahon urushiga O'zbekistondan 1 mln 433.230 kishi safarbar etilgan. Bu urushga yaroqli aholining 50-60 foizini tashkil etardi. Bu urushda mamlakatimiz o'g'lonlarining fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashida ularning matonati va yengilmasligini butun jahonga namoyish etgan bir qancha jang maydonlari bo'lgan. Ana shunday jang maydonlaridan biri Brest qal'asi edi. Bu qal'ani ko'p sonli fashist gazandalarining bir oy davomida quturib qilgan xujumlaridan mrdonavor himoya qilib, pirovardida barcha halok bo'lgan jangchilar ichida bir necha o'zbek o'g'lonlari ham bor edilar. Bulardan biri serjant Doniyor Abdullayev edi. U dushmanning qal'aga qilgan hujumlaridan birida 4 nemisni o'ldirib o'zi ham halok bo'ladi. Brest qal'asini himoya qilishda o'zlarining jasorati bilan dong taratgan O'zbekistonlik jangchilar haqida gap ketganda T.Aliyev, Isayev, Yusupov, T.Xidirov, N.Sodiqov, A.Abdullayev va boshqa nomlarni alohida tilga olmoq kerak bo'ladi.

O'zbekistonlik jangchilar, uning qurolli kuchlari og'ir kechgan Kiyev, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa ko'plab shaharlarning himoyalarida, bu shaharlar ostonalarida kechgan tarixiy janglarda ishtirok etdilar.

Moskva ostonalarida uni himoya qilish uchun olib borgan janglarda I.V Panfilov qumondonligi ostidagi 8 gvardiyachi diviziya jangchilari qahramonlik namunalarini ko'rsatib jang qildilar. Bu



diviziya Qozog'istonda tashkil qilingan bo'lib uning sostavida Toshkentdagi piyoda qo'shinlar bilim yurtida ta'lim olgan 180 dan ortiq ofiserlar bor edi. Moskva himoyasida ko'rsatgan xizmati uchun Oliy Bosh Qumondonlik tomonidan Qizil bayroq ordeni bilan mukofotlangan bu diviziya jangchilari orasida o'zbek o'g'lonlari Zarif Ibragimov, Ikrom Jalilov, Mamadali Madaminov va boshqalar bor edilar. Moskva ostonalaridagi jangda juda ko'plab O'zbekistonlik jangchilar generallar N.A. Belov va L.M. Dovatorlar qumondonlik qilgan otliq korpuslarida mardlik namunalarini ko'rsatib jang qildilar.

Mamlakatimizning o'sha vaqtdagi poytaxti Moskva ostonalaridagi ikkinchi jahon urushining eng qattiq janglarida o'zbek o'g'lonlari bilan bir qatorda o'zbek ayollari ham qatnashib o'z jasoratlarini namoyon etdilar.

Ana shunday o'zbek ayollaridan biri Zebo G'aniyeva Moskva ostonalaridagi janglarda bir o'zi 28 ta fashistni yer tishlatdi. Ko'rsatgan bu jasorati uchun u Qizil Bayroq ordeni va Snayper belgisi bilan mukofotlandi.

Umuman Moskva ostonalarida, uni himoya qilish janglarida ko'rsatgan jasoratlari uchun O'zbekistonlik jangchilardan 1753 kishi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

O'zbekistonlik jangchilar 1942 yilning yozidan 1943 yil bahorigacha Stalingrad ostonalarida bo'lib o'tgan janglarda ajoyib mardlik namunalarini ko'rsatdilar. Snayperchi Abdujabbor Aliqulov 13 gitlerchini, yana bir snayperchi o'zbek ug'loni Xo'jamatov 117 ta pulemyotchi Xamro Ochilov esa 1500 fashistni qirib tashlaydilar. Stalingrad ostonalaridagi janglarda jasoratlari uchun 2788 O'zbekistonlik jangchilar «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandilar.

O'zbekistonlik jangchilar ikkinchi jahon urushining Kursk –Oryol-Belgorod, Leningrad, Kavkaz, Boltiqbo'yi shaharlari, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviyada bo'lib o'tgan shiddatli janglarda faol ishtirok etdilar. Faqat 1944 yilda Qizil Armiyaning dushmanga qarshi olib borgan umumiy xujumi davrida O'zbekistonlik jangchilardan 78 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi xolos...

O'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi «Berlin olingani uchun» medali bilan mukofotlandi. Yurtimiz o'g'lonlari Yaponiyani tor-mor etishga qaratilgan janglarda ham aktiv ishtirok etdilar. Ana shu ishtiroki 6770 jangchilarimizga SSSR ordeni va medallari topshirildi.

2 jahon urushi fronti jang maydonlarida o'zbek o'g'lonlaridan Sobir Rahimov, Ahmadjon Shukurov, Qo'chqor Turdiyev, Vois Ergashev, Mamadali Topiboldiyev, Abdusalom Dehqonboyev, Tojjiali Boboyev, Ostonaqul Shokirov, Elboy Qoraboyev va boshqa yuzlab mardu maydonlar jang maydonlaridagi ko'rsatgan jasoratlari uchun «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoniga ega bulib yurtimiz dovrug'ini ulug'ladilar.

1939-45 yillarda bo'lib o'tgan bu urushda O'zbekistonlik jangchilardan 120 ming kishi SSSR ning turli orden va medallari bilan taqdirlandi. Shulardan 300 dan ortiq kishiga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

Shunday qilib ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston mehnatkashlari, o'zbekning mard o'g'il-qizlari front orqasida, shuningdek urushning dahshatli jang maydonlarida mehnat va jangovarlik jasoratlarini ko'rsatib sovet xalqining bu urushda erishgan umumiy g'alabasiga o'zining salmoqli ulushini qo'shdi. Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston xalqining hissasi.

- 1941 yil arafasida O'zbekiston aholisi 6,8 million kishidan ortiq edi. Urush boshlanganidan beri 2 millionga yaqin vatandoshimiz frontga ketgan, shundan 500 mingdan ortig'i jang maydonlarida halok bo'lgan.
- 200 mingdan ortiq askar va ofiser harbiy orden va medallar bilan taqdirlandi. 301 nafar vatandoshimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni, 70 nafardan ortig'i uchinchi darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan taqdirlangan.
- Shuningdek, O'zbekiston 1,5 milliondan ortiq keksalar, ayollar va bolalarga boshpana bergan. Ularning 200 mingdan ortig'i yetim bolalardir. Evakuasiya qilingan bolalar nafaqat mehribonlik



uylariga tarqatildi, balki o'zbek oilalari tomonidan ham qabul qilingan. Masalan, respublika rahbari Usmon Yusupov o'z oilasiga uch nafar farzandni asrab olgan.

O'n va undan ortiq bolani qabul qilib olgan oilalar ham bo'lgan. Shoahmad Shomahmudovlar oilasi 15 nafar bolani asrab olgan. Butun Ittifoqdan kelgan qochqinlarga boshpana bergan o'ziga xos evakuatsiya markaziga aylangan Toshkent aynan o'sha yillardan "Non shahri", "Xalqlar do'stligi shahri" deb atala boshladi.

Tarixning eng mudhish sahifalaridan biri bo'lgan Ikkinchi jahon urushi yillari o'zining ayanchli voqealari va oqibatlari bilan insoniyat jamiyati xotirasidan hech qachon o'chmaydigan davrlardan biri ekanligi shubhasizdir. Bu urushning millionlab begunoh insonlar, yoshu-qarining bevaqt o'limiga, cheksiz vayronagarchiliklar va uqubatlarga sabab bo'lganligi ko'plar asarlarda qayd etiladi, xotiralarda yodga olinadi. Shunga qaramay, vaqt o'tgani sari uning og'riqlaridan xalos bo'lish qiyinlashib boraveradi.

Urush O'zbekiston xalqlari uchun ham chuqur sinov bo'libgina qolmay, bu davrda xalqimizning faqatgina o'ziga xos jihatlari - birovning dardiga sheriklik, kulfatda qolgan insonlarga beg'araz yordam qo'lini cho'zish, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, qo'yingki, islom dini mohiyatida aks etgan ko'plab ezgu amallar egasi ekanligi ham yaqqol namoyon bo'lgan edi. Albatta, buni sobiq sovet davlatining barcha hududlarida bugungi kunda ham tan olishadi va eslashadi. Shu o'rinda 1996-yilning aprel oyida Moskvada bo'lib o'tgan "II jahon urushi saboqlari va fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning ahamiyati" mavzusidagi xalqaro anjumanda O'zbekiston vakillaridan biri sifatida qatnashgan I. Iskandarovning xotiralarini eslash o'rinlidir. Uning qayd etishicha, o'sha davrda Rossiya Federatsiyasi hukumat rahbarlaridan biri o'z ma'ruzasida O'zbekistonning urushda qozonilgan g'alabasi haqida to'xtalib: "Fashizmga qarshi otilgan har o'nta snaryaddan bittasi O'zbekistonda ishlab chiqarilgan", - degan fikrni ta'kidlagan. Albatta, bu xalqimizning mashaqqatli mehnatiga berilgan munosib bahodir.

Darhaqiqat, O'zbekiston o'z davrida "front ortidagi front" sifatida namoyon bo'ldi. Eng avvalo, minglab o'zbek va o'zbekistonlik o'g'lonlar jang maydonlarida qahramonona kurash olib bordilar. Urush bo'layotgan hududlardan yuzlab sanoat korxonalari, ijtimoiy-madaniy muassasalar hamda millionlarcha insonlar O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Respublikaning o'zida o'nlab yangi korxonalar barpo etildi, ularning barchasi va respublikada mavjud korxonalar urush ehtiyojlariga yo'naltirildi.

Xuddi shunday bir vaziyatda o'zbekistonlik ayollar butun og'irlikni o'z zimmalariga olishdi. Qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyotning boshqa barcha sohalarda xotin-qizlar mehnati yetakchi o'ringa chiqdi. Bu davrda ko'plab nafaqadagi ayollar ham o'z ishlariga qaytib kelib, mehnat qilganlar.

Tabiiyki, urush tufayli sanoat korxonalarida ishlaydigan erkaklarning katta qismi frontga jalb etildi. Bu esa, o'z navbatida, sanoat korxonalari ishchi-xizmatchilari safida ayollar sonining oshib borishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 1942-yilning oxiriga borib, sanoat ishchilarining 63,5 foizi, qishloq xo'jaligi vakillarining 65 foizini xotin-qizlar tashkil etgan edi. Vaholanki, 1940-yilda respublika bo'yicha sanoat sohasida band ayollar jami ishchilarning 43%ini tashkil etgan edi.

Urush arafasida Samarqand viloyatida 195 ta sanoat korxonasi hamda uch mingdan ortiq mayda korxonalar faoliyat yuritgan. Ularning aksariyati ishlab chiqarishni qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, front ehtiyojlari uchun yo'naltirganlar. Urush yillarida mamlakatning turli hududlaridagi o'nlab korxonalar Samarqandga ko'chirib keltirilib, o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. 1941-yilning oxiriga kelib shahar sanoat korxonalarida 2,5 ming ayollar ishlay boshlaganlar.

Shuningdek, Buxoroda ham urush yillarida ayollar faol mehnat qilganlar. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida mehnat qilish ayollarning zimmasiga tushgan. Urush yillarida 200 dan ortiq buxorolik xotin-qizlar sanoat korxonalari va artellarga boshchilik qilganlar. Buxorolik 50 yoshli Bahrixon Ashurxo'jaeva evakuatsiya qilingan turli millatlarga mansub 8 ta bolani o'z tarbiyasiga olgan.



Manbalarning dalolat berishicha, urushning ilk davrlaridayoq respublikaning ko'plab hududlarida ayollar tashabbusni o'z qo'llariga olib, turli tadbirlar uyushtirganlar va barchani bir safda turib mehnat qilishga da'vat qilganlar. Masalan, 1942-yilda Urganch shahrida uyushtirilgan xotin-qizlar mitingida ko'plab uy bekalari ishtirok etganlar va barcha ayollarni frontga ketgan erkaklar o'rnini bosish uchun sanoat korxonalarida ishlashga da'vat qilganlar. Natijada 1943-yilga kelib Urganch korxonalarida 1300 nafar xotin-qizlar mehnat qilganlar.

Urush yillarida O'zbekistonda ko'plab qurilishlar amalga oshirilgan bo'lib, xotin-qizlar qurilish ishlarida ham faol qatnashganlar. Jumladan, Salor va Farhod GESlari, respublikaning turli hududlarida urush davrida bunyod etilgan 200 ta korxonalar qurilishida erkaklar bilan tengma-teng mehnat qilganlar. Shuni alohida qayd etish lozimki, ushbu qurilish ishlari o'ta og'ir sharoitlarda, tabiat qiyinchiliklari va moddiy yetishmovchiliklar vaziyatida olib borilganligi manbalardan ma'lum. Tarixchi olim R. Nurulinning bergan ma'lumotlariga ko'ra, urush yillarida respublikamizda faoliyat olib borgan frontga harbiy aslahalar yetkazib bergan korxonalarining aksariyat ishchi-xizmatchilari ham xotin-qizlar va 14-16 yoshli bolalardan tashkil topgan. Ushbu muassasalarda ish qat'iy tartiblarda, qattiq rejim asosida olib borilgan. 12 soatlik ish kuni, ochlik, sovuq, kiyim-kechaklar va oyoq kiyimlarining yetishmasligi tufayli ularning mehnati yanada og'ir kechgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston urush yillarida frontni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashda yetakchi o'rinlardan birida turgan. Qishloq xo'jaligida ayollarning og'ir mehnati ko'plab asarlarda o'z aksini topgan. Jumladan, sevimli adibimiz O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani nafaqat urushning xalqimizga yetkazgan moddiy va ma'naviy zarari badiiy talqinda yoritilganligi, balki xotin-qizlarning daladagi jasoratlari ko'rsatib berilganligi bilan bu davr tarixidan voqif bo'lishimizda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonlik ayollarning urush yillaridagi eng katta xizmatlari O'zbekistonga evakuatsiya qilib keltirilgan oilalarga g'amxo'rlik qilish, ayniqsa bolalarni bag'riga olishda namoyon bo'ldi. M.Ubaydullayevning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, Shahrisabzdagi "Hujum" arteli ishchisi M. Tursunova ayollarga murojaat qilib: "O'zinning ikki farzandim bo'lganligi holda ko'chirib keltirilgan bolalardan tarbiyalashga olaman va sizlarni ham shunga chaqiraman", – deydi. Uning da'vati javobsiz qolmay, ko'pgina ayollar bu tashabbusga qo'shiladilar va uy-joysiz, ota-onasiz qolgan bolalarni o'z qaramog'iga oladilar. Shu bilan birga, Qashqadaryoda bolalar uylari soni 22 taga yetganiga qaramay, viloyatning turli hududlarida jamoatchilik yo'llari bilan bolalar uylari tashkil etiladi.

Urush yillarida frontda va front orqasida o'zining san'ati bilan jangchilar va mehnatkash xalqqa ma'naviy dalda bergan o'zbek san'atkorlari – Tamaraxonim, Halima Nosirova, Gavhar Rahimova, Roza Karimova va boshqalarning, Zulfiyaxonim, Oydin Sobirova kabi shoira-adibalarining urushdagi g'alabaga qo'shgan hissasi esa alohida e'tibor va tahsinga loyiq.

Umuman, ikkinchi jahon urushi yillari barcha xalqlar vakillari qatori, o'zbek xalqining matonati sinovi bo'ldi. Bu sinovdan o'zbekistonlik xotin-qizlar ham sharaflar bilan o'tdilar va tarixning barcha davrlarida bo'lgani kabi, dardu kulfatlarning balogardoni sifatida o'zlarini namoyon etdilar. Ularning vatan uchun qilgan xizmatlari yoshlarga hamisha, yana uzoq asrlar mobaynida o'rnak va namuna bo'lishiga shubha qilmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek "Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urushda qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz. Urush yillari - O'zbekiston tarixining uzviy bir qismi. Biz tariximizdan biror sahifani olib tashlamaymiz. Bu tarix –bizniki uni unutishga hech kimning haqqi yo'q". O'zbek aholisi ko'ngilli va ixtiyoriy ravishda urushga sararbar etilib, fashist bosqinchilariga qarshi kurashda bor kuch-shijoati, g'ayati bilan qo'lga qurol tutib, kurashga otlandi. Shuningdek, mard-jasur o'g'lonlar bilan birgalikda yurt ravnaqi uchun kurashgan, fidoyi va qahramon bo'lgan mard-u maydon ayollar ham kurash olib bordilar.



Ikkinchi jahon urushida O'zbekistonlik ayollar o'zlarining vatanparvarligi, insonparvarligi va fidoyiligini namoyon etgan holda qahramonliklar ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek: "Butun ma'rifiy dunyoda xotin –qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o'rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e'tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo'lmasligi haqida o'ylaymanki, uzoq gapirib o'tirishning hojati yo'q". Bu borada yaqin o'tmish sovet davri tajribasini sinchiklab o'rganish va undan zarur saboqlar chiqarish muhim. Sovet davlati ham fashizmni dunyoga hukmronlik qilishiga qarshi, insoniyat boshiga keltirishi mumkin bo'lgan falokatlarni oldini olish uchun kurashyapmiz degan g'oya ostida kurashgan. Aslida ikki hukmron kuch ham dunyoga hukmronlikka intilib kurash olib borgan.

1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligidagi davlat mudofaa qo'mitasi(DMQ) tuzilib, barcha ishlar yagona shaxs qo'lida to'plandi. Tish-tirnog'igacha qurollangan fashistlar Germaniyasi bilan kurash oson emasini yaxshi bilardi. Sovet davlatini urush sharoitiga moslash uchun 1941-yil 3-iyulda Stalin radio orqali xalqqa murojat bilan chiqib, bor haqiqatni aytishga majbur bo'ldi. Ushbu voqeadan so'ng Sovet davlati o'zining tarkibidagi barcha davlatlar, viloyatlar, tumanlar va qishloq okruglarida namoyish o'tkazilib, xalqqa murojatlar qilinib, aholini urush sharoitiga moslab tayyorlash, bosqinchilarga qarshi kurashda mardonavorlik, vatanparlik tuyg'usini kuchaytirib dushmanlarni vatan hududiga kiritmaslik uchun bor kuch-shijoatini, fashistlarga qarshi nafrat bilan yurtini himoya qilish haqida da'vatlar qilinib, o'z xalqini va barchani bu sharafli ishga chorlovchi namoyish bo'ldi.

Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1941-yil 18-sentabridagi "SSSR grajdanlariga harbiy ishni yoppasiga majburiy o'tkazish to'g'risida" gi qaroriga binoan "Sovet ittifoqining qurol ko'tarishga qodir bo'lgan har bir grajdani qo'lga qurol olib, o'z Vatanini himoya qilishga tayyor bo'lib turishi lozim" 2. Bunga javoban ittifoq tarkibidagi barcha jasur o'g'lonlar, jumladan, o'zbeklardan surxon vohasining 50 365 nafar mard o'g'lonlari hayot-mamot janglarida qo'llariga qurol olib, dushmanga qarshi ayovsiz kurashdilar. Urushning dastlabki yillarida sovet hokimiyati o'zining qat'iy talablari, zo'rvonlik siyosati va markazga bo'sundirish uchun qat'iy va keskin choralarini amalga oshirdi. Darhaqiqat, qanday qilib bo'lsa ham dushmanni mag'lubiyatga uchratish uchun o'zining Stalincha siyosatlarini bilan oddiy xalq vakillaridan foydalandi. Garchi, bu adolatsiz ekanligini bilsalar-da. Shunday bo'lishiga qaramasdan sovet davlati vakillari o'zining oliy maqsadlari yo'lida hech narsadan qaytmadilar. Bizga tarixdan ma'lumki, 1941-yilning 22-iyunida harbiy safarbarlik e'lon qilinib, sovet ittifoqi tarkibidagi O'zbekistonning yuragida o'ti bor o'g'lonlari ham dastlabki yillarda 32-ming kishi frontga jo'nash uchun ariza berdilar.

23-24-iyun kunlari Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona va boshqa shaharlarda namoyish bo'lib o'tdi. Qoraqalpog'iston Nukusda ham 23-iyun kuni namoyish bo'lib, ko'plab aholi ko'ngilli ravishda fashistlarga qarshi kurashga otlandi. 3. Urushning boshlarida O'zbekistonlik ayollar urushga ketgan otalari, aka-ukalari va turmush o'rtog'lari o'niga dala ishlarida, jumladan, traktor haydash, paxta terimi umuman olganda ayollarga munosib ishlar bilan emas, balki og'ir yumushlarni ham bajardi.

1941-yilning 15-oktabriga qadar bo'lgan vaqt mobaynida 800 nafar xotin-qiz "frontga ketgan yigitlarning o'rnini olishi kerak", degan chaqiriq bilan chiqdi. 4. Dala ishlari, uy-yumushlari va bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmasdan bosqinchilarga qarshi kurashda qo'lga qurol tuta oladigan mard-u maydon ayollar ko'payib, endilikda ular ham urush frontlarida fashistlarga qarshi kurashda jasur o'g'lonlar bilan birgalikda kurashishni or-nomus masalasi deb hisoblab, kurashga otlandi. 1941-yil 5-iyulida Toshkent shahrining Oktabr rayonida miting bo'lib, unda 15-ming xotin-qiz qatnashdi. Bu mitingda "Qimmatli opa-singillar!," "Hamimiz bir yoqadan bosh chiqarib, sevimli Vatanimizni himoya qilaylik, dastgoh, transport, traktor va kombaynlarda ishlab erlarimiz, aka-ukalarimizning o'rnini bosaylik. Bu urushda hech kimni qo'l qovushtirib o'tirishga haqqi yo'q. Biz front orqasida g'alaba qozonamiz degan chaqiriqlari mavjud. 5. Ikkinchi jahon urushiga ishchilar, ziyolilar, xizmatchilar, san'atkor va qo'shiqchilar, tibbiyot xodimlari va talaba yoshlar shuningdek, yuragida o'ti bor har qanday insonlar safarbar etildi. Ular jonajon yurtini dushmanga bermaslik uchun bor kuchlarini



ayamasdan kurashdilar. Urushning dastlabki yillaridayoq, Toshkent shahridan 100-ming yigit-qizlar frontga safarbar etildi⁶.

Boshqa viloyatlardan ham ko'ngilli sifatida urushga otlanganlar mavjud. Jumladan, Samarqand viloyatidan frontga yuborishlarini so'rab, 1316-kishi ariza bergan bo'lsa, 1941-yil 4-avgustga kelib, ularning soni 2988 taga yetdi. Ularni 613 tasi xotin-qizlar edi⁷. Vaholanki, har bir hududlarda bosqinchilarga qarshi kurashda qahr-u g'azabga to'la, urushga otlangan mard va jasur ayollar bisyor edi. Darhaqiqat, ikkinchi jahon urushi frontlariga sanitariy (hamshira) xodimalar, teatr va san'at xodimlari, talaba qizlar va ularning jangovar dugonalari, shuningdek, yuragida Vatanga muhabbat hissi kuchli bo'lgan mard-u maydon ayollar jangga otlanishdi.

1941-yilning qishida nemis armiyasining Ukraina va boshqa hududlarga hujumi bo'ldi. Sovet davlati hududida yanada kuchli safarbarlik bo'lib, unda boshqa xalq ayollari singari o'zbek ayollari ham ishtirok etdi. Ularning qahramonligini e'tirof etgan. Xususan, Ukraina uchun olib borilgan janglarda Buxorodan Rahima Alimova degan komsomol qiz, ayniqsa, qahramonlik ko'rsatmoqda deb yozgan edi potpolkovnik Savvin¹⁵. 1943-yilning 18-iyulidan 28-iyuligacha Shimoliy Dones daryosi qirg'oqlarida Donbas uchun bo'lgan, o'nlab jang bo'ldi. Shu vaqtda pulemyot va minomyot o'qi ostida 97 yarador jangchi va ofitserga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatildi. 1-sentabrdan 21-sentabrgacha davom etgan, 20 kunlik hujum janglari vaqtida Rahima Alimova mardonavor harakat qildi. Bu safar 30 jangchi va ofitserni qurol-yarog'i bilan jang maydonidan olib chiqib, zarur medisina yordami ko'rsatildi. Hayot qolgan jangchi va ofitserlar Rahima Alimovaga hali-hali o'z minnatdorliklarini bildiradilar¹⁶. Shu kabi ayollardan Jamila Husainova ham harbiy tayyorgarlikdan so'ng, Shimoliy Don daryosi bo'yida jangga kirib, undan so'ng janubiy-g'arbiy front chizig'ida, Ukrainani ozod qilishda qatnashdi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ikkinchi jahon urushi insoniyatni, jamiyatni umuman barcha sohalarni fashizm balosidan asrab –avaylashga qaratildi. Bu urushda sovet ittifoqi tarkibidagi barcha millat vakillari, jangchilari, askar-zobitlari va ayollari, jumladan, o'zbek ayollari ham ishtirok etdi. Bu kabi ayollarda yuksak vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'lgani sababli, Vatan himoyasini or-nomus masalasi sanab, ma'suliyatli vazifani o'zlarining nozik zimmlariga olib, urush frontlariga jo'naganligining o'zi katta jasorat. Sovet davlatining, xususan, o'zbeklarning mard-u maydon ayollari fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qahramonlik va jasoratlari bilan o'z fidoyiligini namoyon eta oldi. Har qanday voqea-hodisaning ibtidosi bo'lgani kabi, albatta intihosi ham bo'ladi. 1945-yil 2-sentabrda Yaponiyaning taslim bo'lishi bilan ikkinchi jahon urushi ham tugadi. Fashizm ustidan qozonilgan g'alaba bilan yakun topdi. Har qanday voqeahodisaning boshida inson va uning manfaati, ehtiyoji turadi. Bu urushning g'alaba bilan yakun topishini istagan davlat boshliqlari dunyoda hukmronlik qilish uchun har qanday ishdan voz kechmay, faqat bitta maqsad, ya'ni urushda g'alaba qozonish yo'lida kurash olib bordilar. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida kurashga otlangan sovet ittifoqi tarkibidagi askar-zobitlarning deyarli barchasi jang maydonlarida halok bo'ldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan insonlar urush frontlariga jo'nayverishdi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T.: O'zbekiston. 1996. T.3. B.81.
2. Karimov I. A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. I jild. - T.: O'zbekiston, 1996. - B.54.
3. Inoyatov H. G'alabaga qo'shilgan hissa. - T. Fan, 1975.
4. O'zbekiston tarixi (1917-1991) 2-kitob. - T.: O'zbekiston, 2019.
5. Surxondaryo tarixi Tursunov S, Qobilov E, Murtazoev B, Pardayev T. - T.: Sharq, 2004.
6. Xotira Toshkent shahri. 1- Kitob. - T.: Qomuslar bosh tahririyati. -B.6.
7. Xotira Samarqand shahri. 1- kitob. - T.: Ibn Sino nomidagi matbaa- nashriyoti birlashmasi, 1994.
8. Yorbozorova Z. Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonlik xotin- qizlarning faoliyati. B.M.I.Qarshi. 2013.

